

**CHET TILINI O'QITISH METODLARI VA PRINSIPLARI.  
МЕТОДЫ И ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ.  
METHODS AND PRINCIPLES OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE.**

**Sharipova Hakimaxon Polvonjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti talabasi.

[xakimaxonsharipova@gmail.com](mailto:xakimaxonsharipova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Pedagogik muloqotda tez-tez uchrab turadigan „metodika“ terminining uchta ma'nosi bor. Birinchisi, o'quv predmetini bildiradi, ikkinchisi, ta'limning metodik usullari yig'indisini va uchinchisi, ta'lim nazariyasi va maxsus fanni ifodalaydi. Bu bobda „metodika“ so'zining uchinchi terminologik ma'nosi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolada chet tilini o'qitish metodlari va prinsplari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Chet tili, metodika, innovatsiya, o'quv metodika, tarjima metodi, umumiy va xususiy metodika

**Abstract:** The term "methodology", which is often used in pedagogical communication, has three meanings. The first one represents the subject of study, the second one represents the set of methodological methods of education, and the third one represents the theory of education and a special science. This chapter discusses the third terminological meaning of the word "methodology". This article provides information about the methods and principles of foreign language teaching.

**Keywords:** foreign language, methodology, innovation, educational methodology, translation method, general and specific methodology

**Аннотация:** Слово «методика», часто встречающееся в педагогическом общении, имеет три значения. Первый представляет собой предмет изучения, второй — совокупность методических методов обучения, третий — теорию образования и специальную науку. В данной главе рассматривается третье терминологическое значение слова «методика». В статье представлена информация о методах и принципах преподавания иностранного языка.

**Ключевые слова:** иностранный язык, методика, инновация, методика обучения, метод перевода, общая и специальная методика.

Har bir fanda o‘z tushunchalar yig‘indisi mavjud. Chet til o‘qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta‘lim sistemasi, ta‘lim metodi, ta‘lim prinsipi, ta‘lim vositasi, metodik usul. Pedagogika voqeligi hodisalarini sistemali-strukturali yo‘nalishda o‘rganish munosabati bilan „ta‘lim sistemasi“ termini keng tarqaldi. Ushbu metodik kategoriyaning ma‘nosiga muvofiq ta‘lim jarayoni sistema deb qaralmoqda. Muayyan zamon va makon doirasida amalga oshiriladigan chet til o‘quv jarayoni ochiq (aniq chegara qo‘yilmagan) sistema hisoblanadi va nashr etilgan chet til „o‘quv-metodik kompleksi“da o‘z ifodasini topadi. Ta‘lim sistemasi ko‘zlanadigan maqsad, shakllanadigan mazmun va qo‘llanadigan metod singari kategoriyalardan iborat (ulaming har biri alohida boblarda yoritiladi). Chet til o‘qitish metodi deyilganda, chet til o‘rgatishning amaliy, umumta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta‘minlovchi muallim va o‘quvchi faoliyatining majmuyi tushuniladi.

Metodikaning predmeti – chet til predmeti orqali ta‘lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o‘rgatish ilmi, muallim va o‘quvchi faoliyatini o‘rganish metodikaning predmeti sanaladi. Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika- nimani o‘rgatamiz? O‘qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika – qanday o‘rgatamiz? Ta‘lim usullari va metodlari demakdir. Metod – metodika tushunchasi grek-lotinchada “metodos-“methodus” so‘zidan olingan bo‘lib, ma‘lum maqsadga eltuvchi yo‘llar, usul ma‘nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma‘nosini uchratish mumkin. “Metodika” atamasi tor ma‘noda ta‘limning konkret dars jarayoni bilan bog‘liq tushunchani anglatadi. Mashg‘ulotlarni rejalashtirish va o‘quv materiallarini tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi. “Metod” atamasi keng ma‘noda o‘quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab “didaktika” va “metodika”

tor ma'noda qo'llanilib kelinmoqda. Shunga ko'ra didaktika ta'lim mazmuni nima o'rgatiladi? Metodika esa ta'lim usullari qanday o'rgatiladi? Masalalari bilan shug'ullanadi. Chet tillarini o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat ta'limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o'rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta'lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi.

Fanlarda umumiy va xususiy chegaralanish kuzatiladi, mas. umumiy tilshunoslik va xususiy tilshunoslik, umumiy psixologiya va xususiy psixologiya. Chet til o'quv predmetini o'rgatish nazariy masalalari muhokama etilganda, umumiy metodika tushuniladi. Til materialini tanlash, taqsimlash, tasnif va bayon etish muammolari umumiy metodikaning vazifasiga kiradi. U yoki bu chet tilni aniq pedagogik sharoitda o'qitishga doir ilmiy ma'lumotlar xususiy metodikadan izlanadi. Mas. o'zbek maktablarida xitoy tili o'qitish metodikasi yoki rus maktablarida arab tili o'qitish metodikasi. Umumiy va xususiy metodikaning tarixi, nazariyasi va amaliy muammolariga tegishli fikr-mulohazalar metodika nazariyasi kursini tashkil etadi. Xalqaro miqyosda yaqinroq tadqiq etilmagan „Chet til o'qitishning qiyosiy metodikasi“ o'zbek olimlari tomonidan ishlab chiqildi. Unda turli o'quv yurtlarida chet til o'qitish muammolari ko'tariladi. Ushbu kitobda pedagogika fanlari tarkibidan o'rin olgan chet til o'qitishning umumiy metodikasi masalalari bayon etildi.

Chet til o'qitish metodi – deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi “ta'lim usullari yig'indisi” va “ta'limning yo'nalishi” ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida jarayon metodlar ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli- qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi. Chet til o'qitish metodikasi didaktika bilan

uyg'un, o'zaro bog'langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o'quv fanlarining o'qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma'lum. Chet til o'qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta'limining umumiy nazariyasi, metodika muayyan o'quv predmetini o'qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o'qitish umumiy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o'qitish ilmi sifatida qaraladi. “Metod” atamasi bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi o'qituvchi-pedagog va talabaning ish usuli ma'nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son –sanoqsiz ta'riflarga ega. Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga “tarjima”, “tog'ri”, “qiyosiy”, “aralash” deb atash qabul qilingan.

Keyingi yillarda chet til o'qitishda testlar o'tkazish ommaviy tus oldi. Qisqa davr mobaynida o'quvchilar nutq ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda test qulay bo'lganligidan uning tez va keng tarqalish sababini payqab olish mumkin. Testlar eksperiment oldidan va undan keyin o'tkazilishi amaliyotda sinab ko'rilgan. Tajriba-sinovdagi ilmiy farazning tasdiqlanishtasdiqlanmasligida testning ahamiyati behad kattadir. Test texnika vositalari bilan yoki bosma materialni oddiy qo'llash bilan o'tkaziladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Великанова А. В. Компетентностно-ориентированный подход к образованию / А. В. Вели-канова // Серия «Компетентностно-ориентированный подход к образованию». – Вып. 2 – Самара : Профи, 2002. – С. 92
2. Bekmurodova.U.B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat., Toshkent 2012-yil.
3. N. Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.

4. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. *Academic research in educational sciences*, 2
5. Usmonova, D. S., & Usmonova, K. E. (2022, October). PHONEME THEORY IN LINGUISTICS SCHOOLS. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 13, pp. 6-9).
6. Usmonova, D. S., & Djalolov, Z. J. (2022, October). THE ROLE OF CULTURE IN TRANSLATION PROCESS. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 160-163).
7. Ubaydullayeva, Durдона, and Muhammadjon Tojiboyev. "TRANSLATION IS THE STUDY OF LINGUISTIC AND LITERARY." *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education*. Vol. 1. No. 1. 2023.
8. Ubaydullaeva, D. (2022). ҲОЗИРГИ ЗАМОН ТИЛШУНОСЛИГИДА ҚЎШИМА ГАПЛАР ТАВСИФИ, ТАСНИФИ ВА МЕТАТИЛИ МАСАЛАЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B6), 560-564.
9. Ubaydullaeva, D. (2022). PROBLEMS OF DESCRIPTION, CLASSIFICATION AND METATALOGY OF COMPLEX SENTENCES IN MODERN LINGUISTICS. *Science and Innovation*, 1(6), 560-564.
10. Ubaydullayeva, D., & Raxmonqulova, M. (2022). TILSHUNOSLIKDA IJTIMOIIY YO'NALISHNING TARAQQIYOTI. *Science and innovation*, 1(B6), 869-873.
11. Ismoilova, D. (2021). Pragmatic failure in the heterogeneous